

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI



«TASDIQLAYMAN»

Direktorlar kengashi raisi

L.X. Musadjanova

2025-y. « 5 » 03

Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash

SPORT TIBBIYOTI VA DAVOLOVCHI JISMONIY TARBIYA

(sikli bo'yicha malaka oshirish guruhlar uchun)

O'QUV DASTURI

(144-kredit)

Toshkent – 2025 yil

TUZUVChILAR:

L.X.Musadjanova

Respublika o'rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va
ularni ixtisoslashtirish markazi
direktori, t.f.d. professor

N.A.Shoislomova

RO'TFXMO va IM o'qituvchisi

SH.Q.Adilov

TTA reabilitologiya, xalq tibbiyoti
va jismoniy tarbiya kafedrasida assistenti

TAQRIZChILAR:

Z.Z.Imamova

RO'TFXMO va IM o'quv ishlari
bo'yicha direktor o'rinbosari

X.U.Sodiqova

RIPIATM "Fizioterapiya bo'limi" boshligi,
oliy toifali shifokor, t.f.n

O'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

2025« 1 » 03

2/1 - sonli bayonnoma

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga
tavsiya etildi.

2025« 5 » 03

2 - sonli bayonnoma

1. Kirish

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4310 - son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha meyoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturda o'quv fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. Ishchi o'quv dasturi "Tibbiy asbob va anjomlarni zamonaviy zararsizlantirish usullari" yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, hamshiralarni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo'ljallangan. Dastur fanlar bloklariga ajratilgan bo'lib, kasbiy rivojlanish moduli ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan.

"Sport tibbiyoti va davolovchi jismoniy tarbiya" ishchi o'quv dasturi yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, hamshiralarni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo'ljallangan. Dastur fanlar bloklariga ajratilgan bo'lib: kasbiy rivojlanish moduli ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy talimning uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan. Dastur kredit/modul metodologiyasi bo'yicha va ilg'or xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda, dalillarga asoslangan tibbiyot masalalarini o'z ichiga olgan. Dasturda davolash profilaktika muassasalari, sport va jismoniy tarbiya muassasalari, davolovchi jismoniy tarbiya va rehabilitatsiya bo'limlari hamshiralarni malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, lozim bo'lgan yangi bilim va ko'nikmalarni (bilishi

mumkin, bilishi lozim, bajara olishi kerak va qaysi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi lozim) yetarli darajada o'zlashtirishga qaratilgan materiallar taqdim etilgan.

1.1. Maqsad:

Sport tibbiyoti va davolovchi jismoniy tarbiya bo'yicha o'rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi insonlarni va sportchilar sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash, kasallik va patologik holatlarni davolash va profilaktikasi, sport va JT usul ,omillarini ratsional qo'llashga yondashish, ish qobiliyatini va zo'riqishdan keyingi jarayonni tiklash, malakali tibbiy yordam ko'rsatish samaradorligi ko'tarish, aholi o'rtasida salomatlik ko'rsatkichlarini yanada oshirish, faollikni uzaytirish, hamda hamshiralarning mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash va kasbiy darajasini oshirish.

1.2. Vazifalar:

- umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va tibbiy davolash muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashxislash va parvarishlash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- amaliyotda sog'liqni saqlash bo'yicha asosiy qonunlarni, amaldagi direktiv hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar, tibbiyot sohasidagi yangiliklar, va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko'nikmalarini shakllantirish;
- sog'liqni saqlash tizimidagi asosiy qonunlarni, amaldagi direktiv hujjatlarni xamshiralarni ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- sportchilarni va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilarni dispanser kuzatib turish (kuzatish, kasallikni aniqlab davolash va oldini olish) sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish;
- o'quv -mashq darslarini shifokor-pedagog bilan birga nazorat qilish, sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish sharoitlari ustidan doimiy sanitariya nazoratini o'tkazib borish;
- mashg'ulotlarda va musobaqalarda yuz beradigan sport jarohatlarining oldini olish yoki kamaytirish;
- aholining jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini targ'ibot qilish;
- jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi shaxslarni doimo tibbiy tekshiruvlardan o'tkazib, saralash va nazorat qilish;
- aholi salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash, tibbiy yordamga muhtoj bemorlarni zamonaviy apparaturalarda davolash, inson hayotiga havf soluvchi holatlarni kamaytirish;
- tibbiy yordam ko'rsatish chora tadbirlari, hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumot berish;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o'rgatish;

- jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi insonlarni va sportchilar sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash, kasallik va patologik holatlarni davolash va profilaktikasini amalga oshirish;
- sport va JT usul va omillarini ratsional qo'llashga yondashish, ish qobiliyatini va zo'riqishdan keyingi jarayonni tiklash;
- malakali tibbiy yordam ko'rsatish samaradorligi ko'tarish;
- aholi o'rtasida salomatlik ko'rsatkichlarini yanada oshirish, faollikni uzaytirish;
- bemorlar hayotiga havf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish;
- sport tibbiyoti hamshiralari ishda har tomonlama yetuk, yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish;
- malakali tibbiy yordam ko'rsatish samaradorligini ko'tarish, yangi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dastur bo'yicha davolash profilaktika muassasalari, sport va jismoniy tarbiya muassasalari, davolovchi jismoniy tarbiya va reabilitatsiya bo'limlari hamshiralari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi xujjati* bo'lgan hamshiralalar uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, shaxslararo muloqot ko'nikmalari asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi aholi bilan ishlashda tibbiy hujjatlarini yuritish;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tibbiy reabilitatsiya bosqichlari va reabilitatsiya yo'nalishlarini bilishi;
- reabilitatsiya bo'limlaridagi bemorlarni parvarish qilish, reabilitatsiya dasturlarni olib borish, kerakli muolajalarni o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tabiiy omillardan oqilona foydalana olish;
- tibbiy, jismoniy reabilitatsiya jihatlarni bilishi;
- reabilitatsiya usullarni ketma ketligi va bosqichlarni bilish, unda olib boriladigan tadbirlarni o'tkazishi;
- tez tibbiy yordam ko'rsatish, musobaqalarda tibbiy kuzatuvni olib borishi;
- jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, fiziologik o'zarishlarni bilishi;
- funksional sinamalarni o'tkazishi;
- antropometrik o'lchovlarni olishi;
- mutaxassisligi bo'yicha to'liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan, uzluksiz o'z malakasini oshirishga tayyor bo'lgan, o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha olish va o'z ishini tahlil qilishi.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

O'quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy parvarish va profilaktika choralari qo'llash, xamda O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tizimidagi olimpiya zaxiralari kollejlari, sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari, shuningdek, bolalar o'smirlar sport maktablari, ixtisoslashtirilgan bolalar o'smirlar sport maktablari, Respublika ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari bolalar o'smirlar sport maktablari, barcha turdagi Oliy sport mahorati maktablarida, sport tayyorgarligidan o'tayotgan sportchilarning salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, kasalliklarni oldini olish, ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya va profilaktik yordamning sifati va samaradorligini oshirish, hamda ushbu muassasalarda yuritiladigan tibbiy xisob xujjatlarni tasdiqlash maqsadida tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda oshirishlab chiqilgan.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 soat haftada, 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy - an'anaviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. Malaka oshirishdan so'ng: o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Sport tibbiyoti va davolovchi jismoniy tarbiya" bo'yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI.

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:

- o'rta tibbiyot xodimining fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- o'z-o'zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish, ona - bolalar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash doirasida, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarni olib borish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etadi;
- hamkasblar, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;

- intizomiy, ma'muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo'yicha o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish tayyorligi va amalga oshirishi;
- bemorlarni tashxislashda foydalaniladigan tibbiy va texnik jihozlar bilan ishlash, shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma'lumot olish, global kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyati va istagi; kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish;
- tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasabalar, patsiyentlar va ularning yaqinlari bilan to'g'ri muloqot qilish;
- axoli sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash doirasida aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarni olib borish;
- to'g'ri ovqatlanishni targ'ib qilish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish;
- aholi salomatligini mustahkamlash, sog'lomlashtirish, davolash va profilaktikasi asoslari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshadi;
- jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi shaxslarni doimo tibbiy tekshiruvlardan o'tkazib, saralash va nazorat qilish ko'nikmalari yangilanadi;
- kasallikni erta va yashirin turlarini, havf omillarini aniqlash uchun zamonaviy birlamchi, ikkilamchi profilaktik ishlarni amalga oshirish qobiliyati yangilanadi;
- reabilitatsiya davomida bemorlarni ahvolini baholash ko'nikmalari yangilanadi;
- reabilitatsiyaga tegishli meyoriy hujjatlarni sifatli yuritadi;
- hamshiralik parvarishini olib borish ko'nikmalari yangilanadi;
- sportchilarning ish qobiliyatini oshirish, tiklanish jarayonlarini tibbiy-biologik vosita va usullar bilan kuchaytirish usulari bilan tanishadi;
- sportchilarningsalomatlik holatini, jismoniy rivojlanganligini va ichki a'zolarining funksional holatini aniqlashda zamonaviy asbob-uskunalaridan foydalanish usullari bilan tanishadi;
- mashq mashg'ulotlari va musobaqalar jarayonida tibbiy nazoratni olib borish ko'nikmalari yangilanadi;
- shug'ullanuvchining organizmiga jismoniy yuklamaning ta'sirini kuzatish va o'rganish qobiliyati oshadi;
- zamonaviy funksional tekshirish, diagnostika va davolash usullari bilan tanishadi;
- jismoniy yuklamalardan noratsional foydalanilganda kelib chiqadigan asoratlarning oldini olish qobiliyati oshadi;
- shoshilinch holatlarni o'z vaqtida tashhislash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, o'rnatilgan tartibda hujjatlashtirish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

3. DASTUR MAZMUNI

3.1. “Sport tibbiyoti va davolovchi jismoniy tarbiya ” kursi o‘quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashgu lot	Amaliy mashg‘u lot		
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	18	14		
1.1	Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati	4	4	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul: Infeksion nazorat.	6	4	2		
1.4	Modul: Shaxslar o‘rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat	6	4	2		
1.5	Modul: Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
2.0	Mutaxassislik fanlar moduli	104	44	60		
2.1	Modul: Sport tibbiyoti: asosiy tushunchalar, meyoriy hujjatlar va hamshira majburiyatlari	6	4	2		
2.2	Modul: Bolalar va o‘smirlarda sport tibbiyotining va jismoniy rivojlanishning asoslari	18	6	12		
2.3	Modul: Sportda funksional tashxislash va jismoniy yuklamaga moslashuvni baholash	12	4	8		
2.4	Modul: Sport va jismoniy tarbiyaning o‘rni. Davolovchi jismoniy tarbiyani umumiy tamoyillari. Turli kasalliklarni oldini olishda sport tibbiyotini o‘rni	30	10	20		
2.5	Modul: Sportchilarda ish qobiliyatini oshirish va tiklash: tibbiy nazorat, jismoniy zo‘riqish, dopingga qarshi nazorat.	12	6	6		
2.6	Modul: Sportchilarda eng ko‘p uchraydigan patologik xolatlarni oldini olish. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish.	20	12	8		
2.7	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko‘rsatish.	6	2	4		
3.0	Tanlov fanlar moduli	4			4	
	Attestatsiya	4				4
	Jami:	144	62	74	4	4

“Sport tibbiyoti va davolovchi jismoniy tarbiya ” kursi o‘quv modullarining mazmuni

1.1.Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.

O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy yunalishlari. Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishning maqsad va vazifalari. Sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar. 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Sog‘likni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasining maqsadi va vazifalari. Onalar va bolalarga tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar. Davlat-xususiy sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun, mohiyati. Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmining xuquqiy asoslari. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari

1.2.Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Tibbiyotda qo‘llanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi qurilmalarining dasturiy va texnik ta‘minoti to‘g‘risida nazariy va amaliy bilimlar. Tibbiy statistik ma‘lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish va ulardan kasallikning oldini olish yoki davolashda qo‘llash. Axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari hususiyatlari, ma‘lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilish.

1.3.Modul: Infekcion nazorat.

Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epidemiologiya sohasida qo‘llaniladigan meyoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o‘tkazishda o‘rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o‘ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o‘ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalash tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma‘lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariya holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

1.4.Modul: Shaxslar o‘rtasidagi muloqot va tibbiy maslahat

Jamiyat va bemorning salomatligi yo‘lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko‘rsatish. Bemorga diqqat e‘tibor va g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lish va o‘zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyjanob an‘analarini saqlash. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida sezilarli e‘tibor tibbiyot xodimlarining kasbiy ko‘nikmalariga, bemorlar bilan ularning gender va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatiga

qaratilmoqda. Genderning salomatlikka ta'siri. Genderga sezgir tibbiy maslahat va aloqa to'g'risida tushuncha. Ichki madaniyat qoidalar, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Hamjihatlik va kollegiallik tuyg'ulariga rioya qilish. Neytral va xavfsiz muhitni yaratish. Salbiy munosabat va fikrlardan qochish. Tibbiy maslahatni hurmat va e'tibor bilan boshlash. Faol tinglash va empatiya. Bemorning ehtiyojlarini baholash. Shaxsiy chegaralarni hurmat qilish. Tushunarli tildan foydalanish. Tibbiyot xodimining bemor bilan muloqot qilish qobiliyati. Muloqot ko'nikmalarining turlari va ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatning asosiy tuzilishi va ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatni tartiblashtirish. Noverbal tildan foydalanish. O'zaro tushunishga erishish: bemorning holatini inobatga olish. Samarali muloqotning xususiyatlari

1.5. Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik

Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri

ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

2.1 Modul: Sport tibbiyoti fani. Sport tibbiyotining rivojlanish tarixi. Meyoriy hujjatlar bilan ishlash.

Sport tibbiyoti fani haqida tushuncha. Sport tibbiyotining tashkil qilinishi va rivojlanish tarixi. Sport tibbiyotining asosiy maqsadlari. Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi shaxslarni va sportchilar sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash, kasallik va patologik holatlar profilaktikasi. Sport va jismoniy tarbiya usullari va omillarini ratsional qo'llashga yondashish, ish qobiliyatini va zo'rliqishdan keyingi jarayonni tiklash. Sog'lom va bemor organizmiga har xil darajali jismoniy yuklamalarning ijobiy va salbiy ta'sirlari. Organizm salomatligini yaxshilash va mustahkamlash, funksional holatini oshirish, sportdagi natijalarni oshirish, turli kasalliklarning oldini olish va optimal darajadagi jismoniy faollikni aniqlash. Sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilarda o'tkaziladigan tibbiy ko'rik turlari. Noratsional jismoniy yuklamalar va sport mashg'ulotlarida yuz beradigan spetsifik jarohatlar parvarishi, reabilitatsiyasi. Sport ishi qobiliyatini oshirish, tiklanish jarayonlarini tibbiy-biologik vosita va usullar bilan kuchaytirish. Meyoriy hujjatlar bilan ishlash.

2.2 Modul: Sport fiziologiyasi. Bolalar va o'smirlarda jismoniy rivojlanishni aniqlash. Bolalar sport tibbiyotining asoslari.

Bolalar sport tibbiyotining asoslari. Bolalarda va o'smirlarda jismoniy rivojlanishni aniqlash. Bolalarni chiniqtirishda davolash gimnastikasi usullarini qo'llash. Bolaning yoshiga nisbatan qo'llaniladigan davolash badantariyasi usullari. Jismoniy rivojlanganligini aniqlash usullari. Jismoniy rivojlanganlik antropometrik ko'rsatkichlarini aniqlash. Somatoskopiya ko'rsatkichlarini aniqlash. Kaliperometriya. Jismoniy rivojlanganlikning baholash usullari. Tibbiy tekshiruvlar va ularga qo'yiladigan talablar. Tibbiy ko'rik turlari. Jismoniy tarbiya bilan

shugʻullanuvchilarni tibbiy guruhlarga saralash. Jismoniy tarbiya mashgʻuloti va sport bilan shugʻulanishga koʻrsatma va qarshi koʻrsatma. Jismoniy tarbiya va sport mashgʻulotlarida jismoniy mashqlarning samaradorligini baholash. Jismoniy tarbiya mashgʻuloti va sport bilan shugʻulanish vaqtida texnika havfsizligi qoidalariga rioya qilish. Davolovchi gimnastika muolajasini oʻtkazishga nisbiy va absolyut qarshi koʻrsatmalar.

2.3.Modul.Sport tibbiyotida funksional sinamalar. Organizm asosiy tizimlarini funksional xolatlarini baholash.

Sportchilarning sogʻligi va funksional holatini kuzatishda yangi eksperimental tekshirish usullarini qoʻllash.Jismoniy tarbiya va sport bilan shugʻullanuvchi kishilar sogʻligi ustidan muntazam tibbiy nazoratini oʻrnatish va olib borish.Tibbiy tekshirish usullarini takomillashtirish, yangi mukammal usullarni ishlab chiqish va sport tibbiyoti amaliyotida joriy qilish. Shugʻullanuvchining funksional holatiga shugʻullanish yuklamasini mos kelishini baholash usullari. Shugʻullanuvchining funksional holatiga shugʻullanish yuklamasini mos kelishi uchun tavsiyalar.Funksional yuklamalarni yashirin patologiyalarni aniqlashdagi tutgan oʻrni. Jismoniy tarbiya va sport bilan shugʻullanuvchi kishilarni tibbiy koʻrikdan oʻtkazish.Yetakchi sportchilarni dispanser kuzatuviga olish. Nafas tizimini funksional holatini baholash.Shtange va Genchi, Rozental, ortoklinostatik, klinoortostatik sinimalar. Ortostatik va klinoortostatik sinamalarini oʻtkazilish tartibi.Martine sinamasi.

2.4 Modul.Turli kasalliklarni profilaktikasida sport va jismoniy tarbiyani oʻrni.Davolovchi jismoniy tarbiyani umumiyprinsiplari.

Umumiy va xususiy badantarbiya usullarining asoslari. Kattalar va bolalarda davolovchi badantarbiya mashqlarining turlari va vositalari. Davolovchi jismoniy tarbiyaning vositalari, ularning turlari va qoʻllanilishi.Harakat tartibotlari. DJT muolajasini belgilash prinsiplari. DJT boʻyicha meyorihujjatlarni rasmiylashtirish. Bemorlarni davolashda qoʻllaniladigan DJT usullarining samaradorligini aniqlash. Kattalar va bolalarda yurak-qon tomir va nafas olish tizimi aʼzolarining kasalliklarida davolovchi jismoniy tarbiyani qoʻllash..Kattalar va bolalarda ovqat hazm qilish,moddalar almashinuvining buzilishi, buyrak va siydik yoʻllari kasalliklarida davolovchi jismoniy tarbiyani qoʻllash.Akusherlikda va ginekologiyada shifobaxsh jismoniy tarbiyani qoʻllash.Homiladorlik, tugʻruq va tugʻuqdan keyingi davrlarda jismoniy mashqlarni qoʻllash. Davolash gimnastika kompleksini tuzish. Davolovchi jismoniy tarbiyani qoʻllashga koʻrsatma va qarshi koʻrsatmalar.Mashgʻulotlar samaradorligini aniqlash.

2.5 Modul. Sportchilar ish qobiliyatini oshirishda qoʻllaniladigan tiklash vositalari. Mashq qilish mashgʻulotlari va musobaqalar jarayonida tibbiy nazorat.

Sportchilar ish qobiliyatini oshirishda qoʻllaniladigan tiklash vositalari. Mashq qilish mashgʻulotlari va musobaqalar jarayonida tibbiy nazorat.Sport bilan shugʻullanish nazoratida sportchilarni salomatligini mustahkamlash, sogʻlomlashtirish, davolash va profilaktika chora tadbirlarini tashkil qilish.Mashq qilish mashgʻulotlari va musobaqalar jarayonida tibbiy nazorat.Sport inshootlarigasanitariya gigiyenik talablar va ularni

nazorat qilish. Sport musobaqalarini, jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish ommaviy turlarini o'tkazishda tibbiy xizmat ko'rsatish. Sportchilar o'rtasida sanitariya ishlarini olib borish. Surunkali jismoniy zo'riqish oqibatida yuzaga keladigan patologiya oldi holatlari va patologik o'zgarishlar. Antidoping komissiyasi ish faoliyati. Doping moddalar guruhlari. Doping moddalarning organizmga ta'siri. Doping qabul qilinganligini tekshirish. Dopingga qarshi nazorat.

2.6 Modul. Sportchilarda eng ko'p uchraydigan patologik xolatlarni oldini olish. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish.

Sport turlariga xos ravishda yuzaga keladigan patologik holatlar va jarohatlar. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarni shikastlanish sabablari. Sport travmasini oldini olish. Sport travmalarida tez tibbiy yordam berish. Sportchilar tibbiy reabilitatsiyasi. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi kishilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish. Yetakchi sportchilarni dispanser kuzatuviga olish. Sportchilar o'rtasida sanitariya ishlarini olib borish. Sportchilarning somatik kasalliklari. Sport gigiyenasi. Sport bilan shug'ullanish nazoratida sportchilarni salomatligini mustahkamlash. Sport tibbiyoti xizmatida uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishda sport inshootlariga qo'yilgan gigiyenik talablar. Sog'lom turmush tarzining asosiy mazmuni va prinsiplari. Jismoniy tarbiya va sportning sog'lom turmush tarzini mustahkamlashda o'rni.

2.7. Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.

Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha. Favqulodda vaziyatlar, ularning sabablari, turlari. Tibbiy saralash va triaj asoslari. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari. Qon ketishni to'xtatish usullari. Yengil va og'ir kuyishlarda tibbiy yordam ko'rsatish. Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar, uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish. Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma'lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko'rsatish. Shok holatlarida yordam ko'rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko'rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi, Shifokorlar ko'chasi-2

14-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran videofilmlar.

Klinik amaliyko'nikmalarni mustaxkamlashtirish uchun o'quv xonasimulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar,

Reabilitatsiya o'tkazish uchun zamonaviy fizioterapevtik turli tibbiy apparaturalar.

4.3. ADABIYOTLAR RO'YXATI

4.3.1. Qonunchilik va meyoriy-xukukiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.

2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining buyruq va meyoriy hujjatlari.

4.3.2 Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Adilov SH.K., Usmanxodjayeva A.A. "Shifokor nazorati, shifobaxsh jismoniy tarbiya" o'quv qo'llanma, Toshkent 2014 y.

2. Usmanxodjayeva A.A., Adilov SH.K., Axmedova D.SH. "Shifokor nazorati" fanidan laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy tavsiyalar, Toshkent, 2017 y.

3. Vasilyev V.D., A.A. Usmanxodjayeva "Jismomiy tarbiya va sport bilan shug'ullauvchilarning tizimli mashg'ulotlar tas'iri natijasida inson organizmdagi funksional (nafas, yurak qon tomir va vegetativ nerv tizimlari) holatini baholash" Toshkent. 2012 y. o'quv uslubiy qo'llanma

4. Usmanxodjayeva A.A., Adilov SH.K va boshqalar. "Reabilitologiya va sport tibbiyoti" Darslik. Toshkent, "Tafakkur" nashriyoti, 2020 y.

5. Avdeyeva T.G. "Vvedeniye v detskuyu sportivnuyu meditsinu" Moskva: GEOTAR-Media, 2009.

6. Dubrovskiy V.A. "Sportivnaya meditsina" Uchebnik dlya stud. vissh. uchebn. zavedeniye. – M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS 2002.

7. Yepifanov V.A. Lechebnaya fizkultura i sportivnaya meditsina. M. 2000 g.

8. Makarova G.A. Sportivnaya meditsina: Uchebnik.- M.: Sovetskiy sport, 2003.

9. Makarova G.A. Spravochnik detskogo sportivnogo vracha: klinicheskiye aspekty. M.: Sovetskiy sport, 2008.

10. Sportivnaya meditsina: natsionalnoye rukovodstvo /pod red. akad. RAN i RAMN S.P. Mironova, prof. B.A. Polyayeva, prof. G.A. Makarovoy. – M.: GEOTAR-Media, 2012.
11. «Meditsinskaya reabilitatsiya» pod red. Bogolyubova V.M. kniga I,II,III Izd.3-ye ispr. i dop.-M.: 2010.
12. Mirzoyev O.M. Vosstanovitelniye sredstva v sisteme podgotovki sportsmenov. M.: Fizkultura i sport, SportAkademPress, 2005.
- Ponomarenko G.M. «Chastnaya fizioterapiya» Meditsina M. 2007 g.
- 13.Y.Gaziyeva. SPORT TIBBIYOTI usiubiy qollanma Toshkent . 2012y
- 14.T.Y. Umarova vaboshq.”Xamshiralikishi” Toshkent-2005
- 15.V.YE.AvakovO.V. ChurilovaA.M.Sharipov“Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoy dovrachebnoy pomoshi.” 2010g.
16. Y.Allayorov Y.Tojiboyev“Favkulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.”

4.3.3. Elektron ta’lim resurslari

www.edu.uz

www.minzdrav.uz

www.medpoisk.ru/

www.rusmedserv.com/

<http://ros-medic.ru>

www.adti.uz

<http://www.medlinks.ru>

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1.Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar,o‘tkazish shakli va baholash mezonlari.

Yakuniy attestatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining 2020yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom» ga asosan o‘tkaziladi.